



Axborot byulletenimizning o'n to'qqizinchi sonini e'tiboringizga havola etamiz!

Biz [Yevropa Ittifoqi \(Yel\)](#) tomonidan moliyalashtirilgan va [Xalqaro savdo markazi \(XSM\)](#) tomonidan amalga oshirilayotgan [“O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish”](#) loyihasi doirasidagi Axborot byulletenining o'n to'qqizinchi sonini taqdim etishdan mamnunmiz. Ushbu loyiha O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini qo'llab-quvvatlab, mamlakatning jahon savdosida faol ishtiroki orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni maqsad qilgan.

Ushbu son 2025-yil mart oyi o'rtalaridan iyul oyi o'rtalarigacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan faoliyatlarga bag'ishlangan. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni hozirda yakuniy bosqichga yaqinlashmoqda. Davrning eng muhim voqealaridan biri - 2025-yil 13-iyun kuni Jenevada bo'lib o'tgan JST Ishchi guruhi yig'ilishining o'ninchi sessiyasi bo'ldi. Mazkur tadbir O'zbekistonning 2026-yilda JSTga a'zo bo'lish yo'lidagi muhim bosqichini belgilab berdi.

Yana bir muhim yutuq - O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining iqtisodiy ta'sirini baholovchi tadqiqot yakunlanib, taqdim etildi. Hisobot savdoni liberallashtirishning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish hamda eksport salohiyatini oshirish mumkin bo'lgan tarmoqlarni aniqlash imkonini beradi.

Salohiyatni rivojlantirish yo'nalishida loyiha savdoni himoya qilish vositalari bo'yicha yirik seminarni tashkil etdi. Ushbu seminar O'zbekistonga xorijiy yetkazib beruvchilar tomonidan adolatsiz savdo amaliyotlari kuzatilgan holatlarda ushbu mexanizmlardan samarali foydalanish imkonini berishga xizmat qiladi.

SFS (sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar) hamda TBT (texnik to'siqlar) yo'nalishlarida loyiha amaliy foydalanish uchun murakkab texnik qoidalar (SanQvaNlar) bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqmoqda. Bu hujjatlar yangi sanitariya qoidalarini izchil tatbiq etish va talqin qilishda yordam beradi.

Shuningdek, loyiha O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi laboratoriya tizimini tahlil qilib, uni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).

Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу обунани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

Batafsil Ma'lumot

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyihaning amalga oshirilishi va erishilgan natijalar haqida to'liq va aniq tasavvur hosil qilish maqsadida hisobot davri — o'tgan chorak — yakunlari yuqorida qayd etilgan maqsadlarkesimida ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

Mamlakat [Jahon savdo tashkiloti \(JST\)ga](#) a'zo bo'lish uchun ariza topshirganda, jarayonning boshlang'ich nuqtasi sifatida uning mavjud savdo sohasidagi qonunlari va siyosati olinadi. Aynan shu hujjatlar va siyosatlar asosida a'zolik shartlari bo'yicha muzokaralar olib boriladi. Loyiha ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida a'zolik hujjatlarini tayyorlash va muzokaraviy pozitsiyalarni ishlab chiqishda O'zbekistonga amaliy yordam ko'rsatmoqda.

13-iyun kuni Jenevada JST Ishchi guruhi yig'ilishining o'ninchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Ishchi guruh hisobotini muhokama qilish hamda O'zbekistonning savdo siyosati tizimidagi o'zgarishlarni aniqlashtirish masalalari ko'rib chiqildi. O'ninchi sessiya JSTga a'zo bo'lish muzokaralari jarayonida muhim bosqich bo'lib, O'zbekistonni a'zolik yo'lidagi yakuniy bosqichga olib chiqdi.



O'zbekistonning JST bo'yicha bosh muzokarachisi Azizbek Urunov 10-Ishchi guruh yig'ilishida. U bilan birga loyiha amalga oshirilishini muvofiqlashtirayotgan Xalqaro savdo markazi (XSM) jamoasi: Jan-Sebastyen Rur, yo'nalish rahbari, va Darya Karman, loyiha menejeri. Ular ikkisi ham Bozorlarni rivojlantirish boshqarmasining Savdo va investitsiya siyosati hamda strategiyasi bo'limida faoliyat yuritadi.

Foto: Xalqaro Savdo Markazi(XSM)

Shuningdek, ikki tomonlama muzokarlarda ham sezilarli siljish kuzatildi, belgilangan 33 ta muzokaradan 25 tasi 2025-yil iyuliga qadar yakunlandi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lish jarayonining asosiy talablardan biri bu mamlakatning milliy qonunchiligini JST bitimlariga muvofiqlashtirishdir. Loyiha ushbu yo'nalishda O'zbekistonga dastlabki bosqichlardan boshlab yordam ko'rsatib, amaldagi qonun hujjatlarini ko'rib chiqish va takomillashtirishda ko'mak bermoqda.

O'tgan yil davomida loyiha O'zbekistonning savdoni himoya qilish tizimini JST standartlari va ilg'or xalqaro tajribaga mos ravishda modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratdi.



Loyiha mamlakatning yangi savdoni himoya qilish qonunchiligini amalga oshiradigan mutasaddi xodimlarning texnik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bermoqda. Quyidagi suratda ular 2025-yil aprel oyida Toshkentda o'tkazilgan intensiv bir haftalik texnik seminar davomida. (Bu faoliyat haqida batafsil ma'lumot 3-maqсад bo'limida keltirilgan.)

Foto: Xalqaro Savdo Markazi(XSM)

Xususan, loyiha demplingga qarshi choralar, kompensatsion bojlar va himoya choralariga oid qonunchilik bazasini ishlab chiqishda amaliy yordam ko'rsatdi.

Normativ-huquqiy asos yaratilganidan so'ng, asosiy vazifa bu mazkur qonun hujjatlarini samarali amalga oshirish va ijrosini ta'minlash uchun institutsional salohiyatni mustahkamlash bo'ldi. Shu maqsadda 2025-yil aprel oyida savdoni himoya qilish vositalari bo'yicha besh kunlik texnik seminar o'tkazildi. (Batafsil ma'lumot uchun 3-maqsad bo'limiga qarang.)

Shuningdek, "O'zbekekspertiza" AJ loyiha yordamida mamlakatning tovarlarning kelib chiqish qoidalarini bo'yicha qonunchiligini JST talablari bilan muvofiqligini baholash uchun ekspertiza o'tkazishni so'radi. Loyiha, shuningdek, mutaxassislarni tovarlarning kelib chiqishining xalqaro amaliyoti bilan tanishtirish maqsadida o'quv seminari tashkil etadi.

Yana bir muhim natija bu 2025-yil aprel oyida yakunlangan tahliliy hisobot bo'ldi. Ushbu hisobot O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining iqtisodiy va savdo sohasiga ta'sirini kompleks baholaydi hamda muzokaralarning keyingi bosqichlari uchun amaliy yo'l xaritasi vazifasini bajaradi. Shuningdek, u O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini strategik rejalashtirishda foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Salohiyatni oshirish va texnik yordam ko'rsatish, ya'ni davlat xizmatchilarining JST talablariga oid bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash bu O'zbekistonning JSTga barqaror qo'shilish jarayonini ta'minlashda loyihaning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston uchun savdoni himoya qilish tizimini shakllantirish doirasidagi ishlarining bir qismi sifatida loyiha 2025-yil 7-11 aprel kunlari Toshkentda savdoni himoya qilish vositalari bo'yicha intensiv bir haftalik texnik trening tashkil etdi.

Savdoni himoya qilish choralarini qo'llash ko'nikmasi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa import hajmining keskin oshishi, demping holatlari yoki subsidiyalangan import tufayli adolatsiz raqobat yuzaga kelgan vaziyatlarda.

Treningda vazirliklar va idoralarning 42 nafar vakili ishtirok etdi. Mashg'ulotlar uchta asosiy savdoni himoya qilish vositasi - demplingga qarshi choralar, kompensatsion bojlar va himoya choralari qo'llash hamda ularni tekshirish tartib-taomillariga bag'ishlandi.

Nazariy mashg'ulotlar amaliy mashqlar va real holatlarni modellashtirish bilan boyitildi, bu ishtirokchilarga yangi bilim va ko'nikmalarni amalda sinab ko'rish imkonini berdi. Ishtirokchilarning yarmidan ko'pi imtihon topshirib, sertifikatga ega bo'ldi.

Yoz oylarida loyiha tomonidan to'rt nafar davlat xizmatchisi uchun Shveytsariyaning Bern shahrida joylashgan Jahon savdo instituti (WTI)ning 2025-yilgi Yozgi akademiyasida o'qish imkoniyati yaratildi.



Treningni Folker Graafsma (chapda) - savdoni himoya qilish sohasida ixtisoslashgan xalqaro savdo huquqi bo'yicha yurist, hamda Maksim Shmelev - JST Kotibiyatining Qoidalar bo'limida faoliyat yurituvchi savdoni himoya qilish bo'yicha mutaxassis olib bordi.

Foto: Xalqaro Savdo Markazi(XSM)

Batafsil Ma'lumot

Ishtirokchilar O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonida faol ishtirok etayotgan mutasaddilar bo'lib, ular 2025-yil 30-iyun - 3-iyul kunlari "Savdo siyosatini ekonometrik tahlil qilish", hamda 14-17-iyul kunlari "Barqaror rivojlanish va sanoat siyosati: JST va mintaqaviy savdo bitimlarida qo'llaniladigan notarif chora-tadbirlar" mavzularidagi kurslarni muvaffaqiyatli tamomladilar.

Ishtirokchilar qatorida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (ISSV), Bojxona qo'mitasi, hamda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi vakillari bor edi.

Bundan tashqari, ISSV vakillaridan biri loyiha ko'magida Bern shahridagi Jahon savdo institutida xalqaro huquq va iqtisodiyot bo'yicha ilg'or magistratura (MILE) dasturini muvaffaqiyatli yakunladi. Ushbu nufuzli bir yillik magistrlik dasturi unga JSTning huquqiy va iqtisodiy asoslarini chuqur o'zlashtirish imkonini berdi. O'qishni tamomlagach, u O'zbekistonga qaytib, vazirlikdagi o'z faoliyatini davom ettirmoqda.



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining professorlari, tadqiqotchilari va talabalari savdoni himoya qilish bo'yicha treningda davlat idoralari vakillari bilan birgalikda ishtirok etib, O'zbekiston uchun muhim bo'lgan yangi JST yo'nalishida zarur ko'nikmalarni shakllantirishga hissa qo'shdilar.

Foto: Xalqaro Savdo Markazi(XSM)

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

Savdodagi texnik to'siqlar (TBT) va sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar (SFS) JSTning eng asosiy, shu bilan birga eng texnik jihatdan murakkab yo'nalishlaridan hisoblanadi. TBT texnik reglamentlar va standartlarga e'tibor qaratadi, ular savdoga to'siq bo'lishi mumkin, SFS esa inson, hayvon va o'simliklarning hayoti yoki sog'lig'iga ta'sir qiluvchi talablarni o'z ichiga oladi. Loyiha O'zbekistonga ushbu murakkab yo'nalishlarda JST a'zoligiga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur texnik asoslarni yaratishda yordam bermoqda.

SFS yo'nalishida loyiha yangi sanitar qoidalar va normalar (SanQvaNlar)ni ishlab chiqishga ko'maklashdi, shuningdek, mavjud olti SanQvaNlar ko'rib chiqdi. Hozirda murakkab reglamentlarni izohlovchi qo'llanmalar tayyorlanmoqda, bu esa mutasaddilarga ularni samarali tatbiq etish hamda yangi qoidalarni yagona talqinda qo'llashni ta'minlashda yordam beradi. Bu hujjatlar nafaqat davlat nazorat organlari, balki oziq-ovqat xavfsizligi sohasida faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillari uchun ham foydali bo'ladi.

Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligini sinovdan o'tkazish tizimi tahlil qilinib, uni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Ikki asosiy laboratoriya - Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi huzuridagi Milliy tayanch laboratoriya va Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi huzuridagi Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi laboratoriyasi - o'z faoliyatini ISO/IEC 17025 standartlariga muvofiqlashtirish bo'yicha amaliy maslahat va trening oldi. Bu ularning xalqaro darajada tan olinishini hamda sinov natijalarining xorijda e'tirof etilishini ta'minlaydi.

Mazkur tadbirlar Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasining so'rovi asosida amalga oshirilgan bo'lib, ular O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi tizimini isloh qilish strategiyasiga mos keladi.

Batafsil Ma'lumot

Shu bilan birga, ular ishlab chiqarish, tadbirkorlik va eksportni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi hamda O'zbekistonning JSTning SFS Kelishuvi doirasidagi majburiyatlarini bajarish yo'lidagi amaliy yutuqlarini mustahkamlaydi.



Laboratoriya xodimi 2025-yil boshlarida ITC eksperti tashrifi chog'ida laboratoriyalardan birida sinov ishlarini olib bormoqda. Foto: Xalqaro Savdo Markazi (XSM)

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri bu xususiy sektor vakillarining O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni, shuningdek, bu jarayondan kelib chiqadigan imkoniyatlar va xavf-xatarlar haqida xabardorligini oshirishdir.

So'nggi ikki yil davomida loyiha iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun axborot-tushuntirish seminarlarini tashkil etdi. Hukumatning so'rovi asosida loyiha bunday o'quv tadbirlarini qayta boshlashga tayyor.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)